O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(1-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 410-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

18. TRIGONOMETRIK TENGLAMALARNING KUNDALIK HAYOTDA ISHLATILISHI." *OBRAZOVANIE NAUCA I INNOVATSIONNYE IDEI V MIRE* 21.8 (2023): 125-130.

19. Hikmat o‘g‘li, Alimov Salohiddin, Eshimov Ilhom, va Rahmatullayev Shahzod. "AYLANISH JISMLARI VA KO 'PYOQLARNING HAJMINI HISOBLASHDA ANIQ INTEGRALLARNING TADBIQLARI." *DUNYODA TA'LIM FAN VA INNOVATSIYA G‘OYALARI* 22.3 (2023): 175-179.

20. Xolmurod o‘g‘li XD va boshqalar. MATNLI MASALALARNI YECHISHDA MUTAXASSISLIK MALAKALARINI VA KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI //DUNYODAGI TA'LIM, FAN VA INNOVATSION G‘oyalar. – 2023. – T. 22. – Yo‘q. 3. – 180-185-betlar.

21. Dilmurod X. va boshqalar. O 'QUVCHILARGA GEOMETRIYA KURSINI O‘QITISHDA KOMPYUTER VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O 'QITISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – B. 524-528.

22. Xolmurod o‘g‘li, Xoljigitov Dilmurod va boshqalar. "TENGLAMALARNI YECHISHDA HOSILADAN FOYDALANISH." *DUNYODA TA'LIM FAN VA INNOVATSIYA G‘OYALARI* 21.8 (2023): 141-146.

23. Qahhorov, Muhruddin va Dilmurod Xoljigitov. "Tenglamalar sistemasiga doir misollarni grafik usulda yechish." *Matematika va kompyuter fanlari jurnali* 2.1 (2022).

24. Xoljigitov, Dilmurod, Ilyos Isroilov. "GRAFLAR NAZARIYASI YORDAMIDA MANTIQIY MASALALARNI YECHISH." *Matematika va kompyuter fanlari jurnali* 2.2 (2022).

EKOLOGIK MUAMMOLARNING SHAXS PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI

Yuldashev Sheryigit Ergashevich,
Cho‘tboyeva Go‘zal Murodjonovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada orolbo‘yi mintaqasidagi mavjud ekologik muammolar o‘rganilgan. orolbo‘yining mintaqasidagi ekologik muammolar natijasida yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy va gumanitar muammolar borgan sari murakkablashib borishi hamda shaxs psixologik xususiyatlariga ta’siri masalalari yoritildi. ekologik muammolarga psixologik jihatdan yondashib o‘rganishi kerakligi va aholiga psixologik xizmat turlarini tashkil etish masalalari, ilmiy izlanishlardagi olimlarning fikrlari va xulosalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Orolbo‘yi mintaqasi aholisi, ekologik muammolar, psixologik xizmat, ekologik ong, ekologik motivatsiya.

Kirish. Hozirgi kunda O‘zbekiston va ko‘pgina davlatlar uchun katta xavf tug‘dirayotgan, iqtisodiy ziyon keltirayotgan tabiat uchun fojia hisoblangan Orolbo‘yi muammosidir. Uning psixologik jihatlarini o‘rganilishi dolzarb hisoblanadi, chunki

tabiat bilan inson o‘rtasidagi munosabatlar nihoyatda keskinlashib borishi insoniyat hayoti va hudud istiqboliga xavf-xatar tug‘dirmoqda.

Ekologik muammolarni biri ya’ni bir zamonlar maydoni bo‘yicha dunyodagi to‘rtinchi ko‘l hisoblangan Orol dengizi fojiasi global ekologik muammolarning biridir. Orol dengizining ekologik halokati tabiiy resurslardan savodsiz foydalanish namunasi hamda noto‘g‘ri o‘ylangan inson faoliyatining yaqqol namunasidir. Dengizning yo‘q bo‘lib ketishi daryolar oqimini boshqa yoqqa burish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilishi bilan bog‘liq. Tarixan Orol dengizi o‘zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va turkmanlar kabi xalqlarning taraqqiyot markazi hisoblangan. Qadimdan sug‘orma dehqonchilik rivojlanishi bilan bu yerda paxtachilik amal qilgan, shaftoli, o‘rik, uzum, shuningdek, meva va poliz ekinlarining boshqa turlari yetishtirilgan. Orolbo‘yi hududi turli flora va faunaga ega hudud hisoblanib, unda baliqlarning 38 turi va sayg‘oqlar 1 million soni, gullarni 638 ta o‘simliklar kompozitsiyasi mavjud edi [1-2].

Ekologik muammolar shaxs psixologiyasiga ko‘p yoqimli va o‘zgartiruvchi ta'sir qilishi mumkin. Bu muammolar insonning orqaga qolgan tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatlarini ko‘paytirishi, uning o‘zini va dunyodagi o‘rnini his qilishini o‘zgartirishi mumkin.

Ekologik muammolar, masalan, iklim o‘zgarishlari yoki tabiat vositalarining buzilishi kabi sabablar bilan odamlarda stres va qayg‘uya olib borishi mumkin. Bu esa shaxsning o‘zini nazorat etish, qisqa muddatda o‘zgaruvchanliklar bilan muomalaga tushishni o‘rganishi kerakligini o‘ylashiga olib keladi.

Ekologik muammolar insonlarga o‘zlarini va dunyodagi o‘rinlarini qayta ko‘rib chiqishni o‘rganish va o‘zlarini o‘zgartirishni talab qiladi. Bu masalalar insonlarda ekologik himoya uslublarini qo‘llab-quvvatlash, energiya va suv samaradorligini oshirish, avtomobillarni almashish, texnologik yangilanishlarni qo‘llash va hokazo kabi harakatlar olib keladi[3-4].

Ekologik muammolar harakatlanuvchi, yangilanuvchi va yakunlanmagan ko‘plab hodisalarga olib kelishi mumkin. Bu esa insonlarda hissiyotlarni o‘zgartirishi mumkin, masalan, bu holatlar odamlarda qiziqish, qabul qilish va qaramlik hissiyotlarni oshirishi mumkin.

Ekologik muammolar insonlarni birgalikda harakat qilishga yo‘naltiradi. Masalan, tabiat vositalarini saqlash, iklim o‘zgarishlariga qarshi kurashish, o‘zaro qo‘mitani mustahkamlash kabi masalalar insonlar orasida hamkorlikni va jamoatchilikni oshirishi mumkin.

Ekologik muammolar odamlarni o‘zlarining shaxsiy identitetlarini qayta o‘rganishga yo‘l qo‘yadi. Masalan, bu holatlar odamlarni qarshilik hissiyatidan qutulish va bir-biriga qo‘llab-quvvatlashga olib kelishi mumkin. Bu ham insonlarni o‘zlarining tabiat bilan o‘zaro aloqalarini qayta baholash va o‘zlarining jamiyat va tabiat bilan birga ishlashga qaratilgan munosabatlarini o‘zgartirishi mumkin.

Natijalar va muhokama. Orol fojiasi mintaqa iqlim sharoitini og‘irlashtirib, yoz davrida qurg‘oqchilik hamda jaziramani kuchaytirish, qishda esa qaqshatqich

sovuq kunlarni uzaytirib yuborishdan tashqari, qator iqtisodiy, ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Shu jumladan, transport, baliqchilik, chorvachilik va mo‘ynachilik hamda boshqa an’anaviy faoliyat turlari butkul inqirozga uchradi va yuz minglab odamlar ishsiz qoldi. Natijada ekologik migratsiya jarayonlari avj oldi.

Ekologik tanglik mavjud bo‘lgan xududlarda albatta, iqtisodiy muammolarni ham bo‘lishi tabiiy. Aholini ish bilan ta’minlash ham kundalang masalalarning biri hisoblanadi.

Orolbo‘yining mintaqasidagi ekologik muammolar natijasida yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy va gumanitar muammolar borgan sari murakkablashib bormoqda.

Aholining turmush faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan tibbiy, iqtisodiy rivojlanish, ekologik vaziyat, ijtimoiy himoya va boshqa shu kabi sohalar bilan bog‘liq bo‘lgan Orolbo‘yining zaruriy muammolarini hal qilishda muvofiqlashtirilgan yondashuvni ta’minlash zarur. Bugungi kunda ta’lim sohalaridagi ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash, qiyin sharoitlardagi aholini qo‘llab-quvvatlash samarali yagona boshqaruv tizimini yaratish rivojlantirish vaqti keldi.

Keyingi yillar Orol dengizi mintaqa iqtisodiyotini ko‘tarish, unda ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash, barqaror ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish juda ahamiyatlidir. Amudaryoning unumdor yerlari va Sirdaryo daryolari deltasi, shuningdek yuqori mahsuldor yaylovlar, o‘n minglab odamlarga chorvachilik, parrandachilik va ekinlarni yetishtirish sohalari bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Jumladan: Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish bo‘yicha 2017−2021 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi doirasida qator dasturlari amalga oshirilishi hamda 2021 yilning 18-may kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi yalpi majlisida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi, deb e’lon qilish to‘g‘risidagi maxsus rezolyutsiya qabul qilinishi aytib o‘tishimiz joiz [5-6-7].

Markaziy Osiyoda iqlimning o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarga va Orol muammasini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarda yagona kompleks tarzdagi ilmiy yondashuvlar zarur. Orol dengizi endi hech qachon ilgarigi holiga qaytmaydi, lekin mahalliy aholi himoya va yordamga muhtoj.

Aholining ekologik tarbiyasi, ekologik bilimdonligi hamda odamlardagi ekologik ongni rivojlanganligi butun insoniyat taraqqiyoti tarixida asosiy rol o‘ynaydi. Yuqorida o‘rganilib chiqilgan global ekologik muammolarni kelib chiqishiga inson omillari deb ta’kidlab o‘tsak, endi ona tabiatni asrab qolish ham inson omillari ta’sirida bo‘ladi. Albatta, buning uchun insonda yuqori darajadagi rivojlangan ekologik ong orqali mavjud ekologik muammolarni avj olib ketmaslikni oldini olish va kelgusi iqlim o‘zgarishlariga tayyorgarlik ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘z navbatida bugungi kuni inson va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni psixologik muammo sifatida o‘rganilishini taqozo etmoqda. Shu bilan birga barcha yuz bergan ekologik muammolar negizini o‘rganishga psixolog mutaxassislarni jalb qilishni ham talab qiladi. Ekologik

muammolar inson psixologiyasiga, psixofiziologiyasiga salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Orolbo‘yi mintaqasidagi mavjud ekologik muammolarga oid psixologik tadqiqotlarni o‘tkazish, aholining psixologik salomatligini tashxislash va ularga turli turdagi psixologik xizmat ko‘rsatish lozim. Aholi psixologik salomatligini o‘rganish, psixoprofilaktika, psixodiagnostika va psixokorrektsiya xizmat turlarini joriy etish maqsadga muvofiq[8-9-10].

Xulosa. Hozirgi vaqtda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ekologik o‘zgarishlarga odamlarni psixologik tayyorlash, ekologik ong, ekologik madaniyat saviyasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Ekologik ta’lim-tarbiya masalalarida psixologik bilimlardan foydalanish samaradorligini oshirib borishimiz lozim. Bundan tashqari barcha ijtimoiy sohalarda psixologik xizmat ko‘rsatishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdir. Psixolog mutaxassislar maxsus atrof-muhit bilan bo‘ladigan munosabatlarni to‘g‘ri tahlil qilishda o‘z malaka bilimlarini oshirib borishi joiz. Ekologik muammolarning inson psixologiyasiga salbiy ruhiy ta’sirini o‘rganib boruvchi tezkor psixodiagnostik metodikalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish va rivojlantiruvchi psixorreksion amaliy yordamlarni qo‘llay olishga oid malakalarini oshirib borishimiz kerak. Ekologik qiyin vaziyatda yashovchi insonlarga psixologik tashxis qo‘yish, psixoprofilaktika va psixokorreksiya ishlarining uzluksizligini ta’minlash zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla, Sharafitdinov. "ADOLESCENT PSYCHOLOGY." *Next Scientists Conferences*. 2024.
2. Abdulla, Sharafitdinov, and Qurbonboyeva Ruxshonabonu Boboxonovna. "FEATURES OF MENTAL DEVELOPMENT IN ADOLESCENCE." *Next Scientists Conferences*. 2024.
3. XXX, Sharafitdinov Abdulla, and Eshqulova Nargiza Ximmataliyevna. "SHAXS KAMOLOTIDA XULQ-ATVOR MOTIVLARI." *Conferencea* (2023): 21-25.
4. XXX, Sharafitdinov Abdulla. "TERGOV JARAYONI PSIXOLOGIYASI." *Conferencea* (2023): 1-4.
5. Рашидова, Гульноза, and Абдулла Шарафитдинов. "Психологические проблемы у детей и их решение." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 338-342.
6. Yuldashev, Sheryigit. "KIBERHUJUMLARDAN HIMOYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI." *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании* 2.6 (2022).
7. Buribaevich, M. K., Yuldashev, S. E., & Ugli, S. L. B. (2022). Psychology of Modern Leadership as an Important Phenomenon of Effective Management. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(1).
8. Ergashevich, Y. S. (2022). KIBERHUJUMLARDAN HIMOYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. International Journal of

Contemporary Scientific and Technical Research, 46-49.
9. Ergashevich, Y. S. (2022). Pschology of modern leadership as an important phenomenon of effective management". Intenational Journal of Early Childhood Special Education ISSN, 1308-5581.

IRODA NAZARIYALARI L.S. VIGOTSKIYNING IRODA RIVOJLANISHIGA QO‘SHGAN HISSASI

PhD. Rashidova Gulnoza G‘ulomovna,
Choriyorova Shaxriniso To‘lqin qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
rashidovagulnoza1989@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolamizda Iroda – tushunchasini har kim turlicha talqin qilganligi. Masalan; kimdir uni tg‘g‘ri sg‘zlamoq bilan yana kimdir oddiygina parhez bilan. Aslida olganda iroda insonning ongdagi faoliyat maqsadini belgilashda, maqsadga erishish vositalari va yg‘riqlarini oldindan aniqlab bir qarorga kelishda, qarorlarni tg‘g‘ri va erkin ijro etishda va maqsadlarga erishishda namoyon bg‘ladi. Iroda har kimning aqliy faoliyatiga qarab turlicha shakllanishi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Iroda psixologiyasi, psixik funksiya, aks ettirish, ekzistensial psixologiya, ierarxik qadriyat, Irodaviy harakat, xulq-atvor, ijtimoiylashuv, intilgensiya, san'at psixologiyasi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamkor xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar, butun jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Davlatimiz rahbarining Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla” yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturini amalga oshirish istiqbollari haqidagi nutqini tinglash asnosida bizda ham bir qator fikrlar tug‘ildi. Prezidentimiz Davlat dasturi to‘liq bajarilishi va kutilgan samaralarni berishi uchun uning mazmun-mohiyatini keng targ‘ib etish zarurligiga alohida e’tibor qaratgani bejiz emas.

Shu maqsadda milliy darajada: ta’limning maktablardan toki oliy o‘quv yurtlarigacha bo‘lgan barcha bosqichlarida “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobi bo‘yicha milliy insholar tanlovini o‘tkazishni taklif etamiz. Bu tadbir yoshlarimiz ongu shuurida vatanparvarlik, milliy g‘urur g‘oyalarini mustahkamlab, kuchli g‘oyaviy immunitet hosil bo‘lishiga xizmat qiladi.

Iroda – odamning g‘z faoliyati va psixik jarayonlarini g‘zi boshqarishda namoyon bg‘ladigan qobiliyatdir. Inson faoliyatining barcha turlari va har qanday mehnat kishidan mustahkam irodani talab qiladi.

Iroda – tushunchasini har kim turlicha talqin qiladi. Masalan; kimdir uni tg‘g‘ri sg‘zlamoq bilan yana kimdir oddiygina parhez bilan. Aslida iroda insonning ongdagi faoliyat maqsadini belgilashda, maqsadga erishish vositalari va yg‘riqlarini oldindan aniqlab bir qarorga kelishda, qarorlarni tg‘g‘ri va erkin ijro etishda va maqsadlarga erishishda namoyon bg‘ ladi. Iroda har kimning aqliy faoliyatiga qarab turlicha